

12.13

## Qishloq xo‘jaligi vazirligining korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi 2024 yil II -choragi bo‘yicha HISOBOT

### **I. Umumiy ma’lumot**

2024-yilning II-choragida vazirlik markaziy apparatiga korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan jami 17 ta murojaatlarning 7 tasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi, 1 tasi Tadbirkorlar virtual ofisi, 1 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) kotibiyati, 1 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim, Fan Va Innovatsiyalar Vazirligi, 7 tasi Qishloq xo‘jaligi vazirligiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ravishda kelib tushgan.

Shundan hududlar bo‘yicha, Toshkent shaxridan 1 ta, Navoiy va Farg‘ona viloyatidan 2 tadan, Toshkent viloyatidan 3 ta, Jizzax viloyatidan 4 ta va Surxondaryo viloyatidan 5 ta murojaat kelib tushgan.

### **II. Ko‘rib chiqish natijalari**

Qishloq xo‘jaligi vazirligiga korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlarning ko‘rib chiqish natijalari bilan, 12 ta holatda murojaatchilarga tushuntirishlar berildi, 5 ta xolatda murojaat ko‘rmasdan qoldirildi.

### **III. Minimallashtirish choralar**

Korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlardan kelib chiqib korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqiladi, hududiy bo‘linmalar va tizim tashkilotlariga ijro uchun yuboriladi.

**Komplaens nazorat va  
Korrupsiyaga qarshi kurashish  
bo‘limi boshlig‘i**



S. Xalilov